

O'QUV LUG'ATLARI VA ULARNI TUZISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv lug'atlarining mohiyati, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va didaktik ahamiyati tahlil etilgan. O'quv lug'atlarining boshqa turdagi lug'atlardan farqli jihatlarini yoritilib, ularni tuzishdagi asosiy tamoyillar — adresat yoshi, til darajasi, o'rgatilayotgan til bosqichi va ta'lim maqsadlari kabi omillarni atroflicha tahlil qilingan. Maqola til o'rganish jarayonini samarali tashkil etish va lug'at materiallarini tizimli shakllantirishda amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: o'quv lug'atchiligi, akademik lug'atchilik, o'quv lug'atlari, lug'at, ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at, o'zbek tilining to'g'ri yozish o'quv lug'ati, o'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati.

EDUCATIONAL DICTIONARIES AND PRINCIPLES OF THEIR COMPILATION

Annotation. This article analyzes the essence of educational dictionaries, their role in the educational process and didactic significance. The differences between educational dictionaries and other types of dictionaries are highlighted, and the main principles for their compilation are analyzed in detail, such as the age of the addressee, the level of the language, the stage of the language being taught, and the goals of education. The article is of practical importance in the effective organization of the language learning process and the systematic formation of dictionary materials.

Keywords: educational vocabulary, academic vocabulary, educational dictionaries, dictionary, encyclopedic dictionary, linguistic dictionary, correct writing of the Uzbek language, word making of the Uzbek language educational dictionary.

УЧЕБНЫЕ СЛОВАРИ И ПРИНЦИПЫ ИХ СОСТАВЛЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируется сущность учебных словарей, их роль в учебном процессе и их дидактическое значение. Выделены отличия учебных словарей от других типов словарей, а также подробно проанализированы основные принципы их создания, включая такие факторы, как возраст адресата, уровень владения языком, этап изучаемого языка и образовательные цели. Статья имеет практическое значение для эффективной организации процесса изучения языка и системного формирования словарного материала.

Ключевые слова: учебный словарь, академический словарь, учебные словари, словарь, энциклопедический словарь, лингвистический словарь, учебный словарь правильного написания узбекского языка, словообразовательный словарь узбекского языка.

Hozirgi kunda o'zbek tilining o'quv lug'atlari ona tili ta'limida muhim ahamiyat kasb etmoqda, ularni tuzish esa leksikografiyaning alohida tarmog'iga aylanmoqda. Buning sababi shuki, lug'at til va olamning dunyoqarash bilan bog'liq manzarasi haqidagi bilimlarni umumlashtirish va qayd qilishning eng qulay shakli bo'libgina qolmay ta'lim berishning eng muhim vositasi hamdir. Modomiki o'quvchilarning so'z boyligini oshirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi ekan, ularni turli lug'atlar bilan tanishtirish va bu lug'atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Lug'at imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini oshirishning muhim manbayi, o'quvchining asosiy maslahatchisidir.

O'quv lug'ati nima? O'quv lug'atchiligining umumiy (akademik) lug'atchilikdan farqi nimada?

O'quv lug'atchiligi akademik lug'atchilikka nisbatan kichik shakllar va ko'proq ta'limiy yo'naltirilganlikka ega bo'lgan lug'atchilik sifatida ta'riflanadi. O'quv lug'atlari o'qish-o'qitish maqsadi bilan tuziladi, talabalar yoki maktab o'quvchilari uchun mo'ljallanadi. Bunday lug'atlar tanlangan leksik materialning hajmi, tanlash yo'li, muayyan o'quv das-turini nazarda tutishi, o'quvchi kitobxonlarning bilim darajasini hisobga olishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Biroq ba'zan "o'quv lug'atchiligi" tushunchasining hajmi kengaytiriladi: unga faqat maxsus o'quv lug'atlari (kichik hajmdagi) emas, darsliklardagi yordamchi lug'atchalar, shuningdek leksik minimumlar, ya'ni muayyan bosqichda o'rgatish tavsiya etiladigan so'zlar ro'yxati, hatto o'zlashtirish qiyin so'zlarni o'rgatishga mo'ljallangan lug'at ko'rinishidagi o'quv qo'llanmalari ham kiritiladi. Shunday qilib o'quv lug'ati termini ikki ma'noda ishlatiladi: 1) ta'lim berishga mo'ljallangan har qanday turdagi lug'at

ma'nosida, 2) har bir so'zga o'quvchiga tushunarli izoh, grammatik tavsif, asosiy paradigmatic va sintagmatik aloqalari berilgan leksika bo'yicha har qanday qo'llanma.

Shundan kelib chiqib o'quv leksikografiyasiga "leksikani ta'limiy maqsadlarda nazariy va amaliy jihatdan tavsiflaydigan alohida lingvometodik soha" (V. V. Morkovkin) deb ta'rif berish mumkin.

Bu ta'rif o'quv leksikografiyasining eng muhim jihatlari e'tibor qaratishga imkon beradi: o'quv lug'ati oddiy lug'atdan nimasi bilan farq qiladi, bunday lug'at uchun so'zlarni qay tarzda tanlash kerak, so'zni izohlashning qaysi usullari o'quv lug'atining vazifalarga ko'proq javob beradi va h. k. Yuqoridagi ta'rif o'quv lug'atlarini shunchaki umumiy leksikografiya tarkibiga kiritibgina qolmay, balki uning chegaraviy xususiyatini, ya'ni u ikki fan: an'anaviy leksikografiya va til o'qitish metodikasi tutashgan joyda tug'ilganini ham aks ettiradi.

Shunday qilib o'quv lug'atlari bir qator o'ziga xos belgilarga ega: 1) metodik yo'naltirilganligi va qat'iy ravishda ta'limining muayyan bosqichiga mo'ljallanganligi, 2) til materialini o'quv-metodik maqsadga muvofiqlik mezoniga javob berishi lozim bo'lgan tarzda o'ziga xos tanlab olish, 3) nutqiy amalning barcha siklini qamrab olishi, nutqiy faoliyatning barcha turini o'rgatish.

Binobarin o'quv lug'atlarini tuzish "katta" lug'atlarni mexanik tarzda qisqartirishdan iborat emas, u aytib o'tilgan barcha leksikografik tushunchalarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Yuqorida aytilganidek didaktik (ta'limiy) element har qanday lug'atga, ayniqsa me'yoriy lug'atga xos, biroq maxsus o'quv lug'atlarida u juda kuchayadi, chunki unda ko'rsatma berish, qat'iy belgilash jihati ma'lumot berish jihatidan ustunlik qiladi.

O'quv lug'atining barcha turida lug'atning pedagogik nutqiga, ya'ni didaktik yo'naltirilgan leksikografik nutqqa katta e'tibor beriladi. Bunday lug'atning tili o'qituvchining pedagogik nutqi yoki darslikning didaktik tili bilan bir xil tabiatga ega bo'ladi.

Har bir o'quv lug'atining asosiy muammolaridan biri so'zlikni shakllantirishdir. Bunday lug'at o'zbek tilining ko'p qo'llanadigan va muhim leksikasini aks ettirishi kerak: unga tilning leksik yadrosini tashkil qiluvchi so'zlar bilan birga turli nutq vaziyatini qamrab oladigan, turli mavzuda va har qanday holatda muloqot qilish uchun etarli bo'lgan so'zlar, zarur leksik minimum ham kiradi.

O'quv lug'atining o'ziga xosligi leksik birliklarni izohlashda ham namoyon bo'ladi. U sodda, tushunarli, qisqa va aniq bo'lishi kerak. So'z ma'nosini o'quv maqsadida izohlashning bir necha juda samarali usuli mavjud: umumiy tushunchani xususiy, soddaroq tushuncha orqali izohlash (hasharot – ari, chumoli, qo'ng'iz), mazmunan yaqin tushunchalarni o'ziga xos farqli belgisi orqali chegaralash (qalin – ko'ndalang o'lchami katta, yo'g'on – ko'ndalang kesimi katta), ma'noni surat, chizma yordamida izohlash, so'zlar birikuvchanligi orqali izohlash (yashirin izohlash) va h. k.

O'quv lug'atida so'zning paradigmaticasi (sinonim, antonim, leksik-semantik va mavzuviy guruhlari) muntazam va aniq ko'rsatilishi lozim. Shuning uchun o'quv leksikografiyasida mavzuviy (ideografik) lug'atlar tuzish dolzarb masaladir.

O'quv lug'atining so'z maqolasi tuzilishi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Unda so'z haqidagi lingvistik – grammatik, semantik, orfoepik va h. k. axborot yanada qat'iyroq bir xillikka olib kelinishi lozim. O'quv lug'atining lug'at maqolasida so'z, uning shakllari, nutqda qo'llanishi haqida, ya'ni o'quvchiga o'zbek tilidan faol foydalanishga yordam beradigan barcha narsa haqida to'liq ma'lumot berilishi lozim.

Shunday qilib o'quv lug'ati metodik talablarga javob beradigan, odatda kichik formatdagi bitta jild ko'rinishida tayyorlanadigan va ma'lumotni tez va oson olishni ta'minlaydigan u yoki bu tamoyil asosida tartib berilgan so'zlarning ular haqida lisoniy ma'lumot berilgan ro'yxatidir.

O'quv lug'atlarining turlari. O'quv lug'atchiligining oldiga quyilgan asosiy talablardan biri leksikamizning barcha bo'g'inlarini kerakli shakllarda tasvirlashdan iboratdir. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning turli xil ma'noviy, sintagmatik va boshqa jihatlari qaratiladi. Professor B. Mengliyevning fikricha, so'zlarni o'rganish va yozishning turli aspektlariga bog'liq ravishda o'quv lug'atlarining quyidagi turlari yaratilishi mumkin:

1. So'zlarni to'g'ri yozish qoidalarini belgilaydigan lug'atlar – o'zbek tilining to'g'ri yozish o'quv lug'ati.

2. So'zlarning tuzilishi, yasallish tizimini o'rganadigan lug'atlar - o'zbek tilining so'z yasallishi o'quv lug'ati.

3. So'zlarning ishlatilish darajasini aniqlaydigan lug'atlar - o'zbek tilining chastotali o'quv lug'ati.

4. So'zlarning izohi, bosh va ko'chma ma'nosi, ma'nodoshlari, shakldoshlarini o'rganadigan lug'atlar - o'zbek tilining o'quv izohli lug'ati.

5. So'zlarning ma'noli qismlarini o'rganadigan grammatik lug'atlar - o'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati.

6. Soʻzlarning tarixiy shakllarini oʻrganadigan lugʻatlar - oʻzbek tilining eskirgan soʻzlar oʻquv lugʻati.

7. Soʻzlarning leksik-semantik guruhlarini oʻrganish bilan bogʻliq lugʻatlar – oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining zid maʼnoli soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining shakldosh soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining talaffuzdosh soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining uyadosh soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining tur-jins munosabatidagi soʻzlar oʻquv lugʻati, oʻzbek tilining butun-boʻlak munosabatidagi soʻzlar oʻquv lugʻati.

8. Iboralar, tasviriy ifodalarning izohiga bagʻishlangan lugʻatlar - oʻzbek tili barqaror birliklarining oʻquv izohli lugʻati.

9. Soʻzlarning valentlik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan grammatik lugʻatlar - oʻzbek tilining soʻzlar birikuvchanligi oʻquv lugʻati.

10. Maktab fanlari terminlarini izohlashga qaratilgan mavzuvii terminologik lugʻatlar – matematika, fizika, geometriya terminlarining oʻquv izohli lugʻati, biologiya, botanika, zoologiya, kimyo terminlarining oʻquv izohli lugʻati, adabiyot, ona tili terminlarining oʻquv izohli lugʻati, tarix, geografiya, jamiyatshunoslik, huquq terminlarining oʻquv izohli lugʻati.

Aytib oʻtish kerakki, bu lugʻatlarning koʻpchiligi tilshunosligimizda yaratilmoqda, yaratildi. Jumladan, 2006-2009 yillar oraligʻida "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan yigirmaga yaqin mavzuvii oʻquv lugʻatlari sinov tariqasida nashr etildi: Mengliyev B.M. Bahridinova B.M. "Oʻzbek tilining soʻz tarkibi oʻquv lugʻati" 2007-2009.; O.Shukurov, B.Boymatova "Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati" 2007-2009.; Mengliyev B.M. Bahridinova B.M., Xoliyorov Oʻ. "Oʻzbek tilining soʻz yasalihi oʻquv lugʻati" 2008.; Toʻrayeva U., Shodmonova D. "Oʻzbek tilining zid maʼnoli soʻzlar oʻquv lugʻati" 2007-2009.; Islomov I. Bobojonov Sh. "Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati" 2007-2009.; Xamrayeva Y. "Oʻzbek tilining oʻzlashma soʻzlar oʻquv lugʻati" 2007-2009.; Mengliyev B. Xudoyberdiyeva M. "Oʻzbek tili iborolari oʻquv lugʻati" 2007-2009.; Nafasov T. Nafasova V. "Oʻzbek tilining oʻquv toponimik lugʻati" 2007.; X.Suvonova G.Turdiyeva "Oʻzbek tilining shakldosh soʻzlar oʻquv lugʻati" 2007-2009.; X.Norxoʻjayeva "Oʻzbek tilining eskirgan soʻzlar oʻquv lugʻati" 2006.; Nafasov T. Nafasova V. "Oʻzbek tilining talaffuzdosh soʻzlar oʻquv lugʻati" 2008.

Bular tayanch oʻrta taʼlim oʻquvchilariga moʻljallangan lugʻatlar. Mustaqillik davrida boshlangʻich taʼlim oʻquvchilari uchun ham bir qancha lugʻat nashr qilindi. Misol tariqasida quyidagi lugʻatlarni koʻrsatish mumkin: Rizayev S. Imlo va talaffuz lugʻati (boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun). – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1998; Hojiyev A., Muhiddinova X. Oʻzbekcha-ruscha lugʻat (boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun). – Toshkent: «Oʻqituvchi», 2007; Safarov F., Safarov S. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun izohli lugʻat. – Toshkent: «Fan», 2012; Miraziz Aʼzam. Ming bir soʻzni bilaman.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun uyadosh soʻzlar, maʼnodosh soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar, eskirgan soʻzlar, yangi soʻzlar, tasviriy ifodalar, iboralar, olinma soʻzlar, atamalar lugʻati tuzish oʻzbek oʻquv lugʻatchiligi oldida muhim vazifa boʻlib turibdi.

Oʻquv lugʻatlari zarurligi haqida koʻp gapirib va yozib kelinmoqda. Turli xildagi oʻquv lugʻatlari yaratilmas, oʻquvchilarning stolida ona tilidan uning yoshiga mos koʻplab oʻquv lugʻatlari turmas, buning uchun oʻquv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yoʻlga qoʻyilmas ekan, ona tili taʼlimi oʻzining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi.

Yuqorida aytilgan nashr etilgan oʻquv lugʻatlari mavjudligiga qaramay mamlakatimizda oʻquv lugʻatchiligi sohasi eng oqsoq sohalardan. Uning yetarli darajada shakllanmaganligi lugʻatlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bogʻliq ilmiy va moliyalashtirish tizimi yaratilmaganligi bilan bogʻliq.

Oʻzbek oʻquv lugʻatchiligining yoʻlga qoʻyilishi quyidagi muammolar yechimi bilan bogʻliq:

1) oʻzbek leksikografiyasi negizida oʻquv lugʻatchiligi tarmogʻini tashkil qilish;
2) oʻquv lugʻatchiligining nazariy va amaliy masalalari bilan shugʻullanadigan Doimiy anjuman tashkil etish;

3) oʻquv lugʻatlarining lingvistik va pedagogik asoslarini yaratish;

4) oʻquv lugʻatlarini tuzish tamoyillarini ishlab chiqish;

5) oʻquv lugʻatlarini tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shugʻullanuvchi markaz tashkil qilish;

6) lugʻatlarni nashr qilishni moliyalashtirish;

7) oʻquv lugʻatlarining elektron versiyalarini yaratishni yoʻlga qoʻyish.

Bu muammolarning yechimi ona tili taʼlimidagi ulkan boʻshliqning toʻldirilishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, oʻquv lugʻatlari til oʻrgatish jarayonining ajralmas qismi boʻlib, ularni tuzishda lingvistik, didaktik va psixologik yondashuvlarning uygʻunligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lugʻatlar tuzilayotganda, foydalanuvchilarning yoshi, bilim darajasi, oʻrganilayotgan tilning bosqichi va taʼlim maqsadlari inobatga olinishi zarur. Shuningdek, soʻzlarning tanlovi, ularning izohlari,

grammatik shakllari va misollar orqali tushuntirilishi lugʻatning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, oʻquv lugʻatlarini elektron shaklda ishlab chiqish esa taʼlim jarayonini yanada interaktiv va qulay qiladi. Ushbu maqola oʻquv lugʻatlarini tuzish boʻyicha ilmiy-nazariy asoslar va amaliy tavsiyalarni bayon etgan holda, til oʻrgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev M. Ona tili. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2013. 61-72
2. M.Hamroyev. Ona tilidan lisoniy tahlil qoliplari. Toshkent: TDPU. 2019. 30-31
3. Alimov, Sh. (2007). *Hozirgi oʻzbek adabiy tili*. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Nurmonov, A. (2010). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: Fan.
5. Salomov, Gʻ. (1985). *Leksikologiya va frazeologiya*. Toshkent: Oʻqituvchi.
6. Muminov, M. (2003). *Lingvistik tadqiqotlar va oʻquv lugʻatlari*. Toshkent: Fan.
7. Gʻafurov, N. (1996). *Oʻzbek tilining oʻquv lugʻatlarini tuzish muammolari*. Til va adabiyot jurnali, №3, 25–30-betlar.
8. Ahmadaliyeva, M. (2021). "Oʻzbek tilida oʻquvchilar uchun moʻljallangan lugʻatlarni tuzish tamoyillari." *Filologiya masalalari jurnali*, №2, 47–52-betlar.